

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA MONOLOGIK NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Ilmiy rahbar: Namangan Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy tillar kafedrası

Katta o'qituvchisi Saydaliyeva Mashhura Anvarjon qizi

Tel: +998941521918

UDK: 37.1174

Namangan Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy tillar kafedrası bakalavr talabasi

Majidova Shodiya Ikromjon qizi

Tel: +998937670128

E-mail: shodiyamajidova@email.com

Annotatsiya: Maqolada ingliz tili mashg'ulotlarida monologik nutqni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil va izchil nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *monologik nutq, pedagogik texnologiyalar, ingliz tili, kommunikativ yondashuv, raqamli ta'lim.*

Аннотация: В статье анализируется эффективность современных педагогических технологий в развитии монологической речи на уроках английского языка. Результаты подтверждают положительное влияние инновационных методов на формирование самостоятельной и связной речи учащихся.

Ключевые слова: *монологическая речь, педагогические технологии, английский язык, коммуникативный подход, цифровое обучение.*

Abstract: The article analyzes the effectiveness of modern pedagogical technologies in developing monologic speech in English language classes. The findings confirm that innovative approaches positively contribute to students' independent and coherent speech development.

Keywords: *monologic speech, pedagogical technologies, English language, communicative approach, digital learning.*

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning asosiy strategiyasi o'quvchilarda til birliklarini o'zlashtirish bilan birga, ularning mustaqil og'zaki nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Ushbu jarayonda monologik nutq

o'quvchining fikrini ketma-ket, mantiqan asoslangan va uzluksiz shaklda ifodalash qobiliyatini belgilovchi muhim kommunikativ kompetensiya sifatida qaraladi.

Monologik nutq - bu bir shaxs tomonidan ma'lum mavzu yuzasidan uzluksiz va izchil bayon etiladigan nutq shakli bo'lib, u tasvirlash, hikoya qilish, tushuntirish hamda taqdimot qilish kabi nutqiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bunday nutqni shakllantirish jarayoni o'quvchilardan nafaqat leksik va grammatik bilimlarni, balki fikrni tizimli tashkil etish va auditoriyaga mos tarzda ifodalash ko'nikmalarini ham talab qiladi.¹ Amaliy pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichidagi o'quvchilar ko'pincha qisqa va sodda gaplardan foydalanishga moyil bo'lib, kengaytirilgan nutq tuzishda qiyinchilikka duch keladilar. Masalan, "My family" mavzusida ular faqat "I have a family" kabi qisqa ifodalar bilan cheklanib qolishi mumkin, biroq mavzuni 1–2 daqiqalik izchil bayon qilish ularda hali to'liq shakllanmagan ko'nikma hisoblanadi. Shu sababli monologik nutqni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kommunikativ yondashuv, loyiha asosida o'qitish, vizual materiallar va raqamli platformalarning integratsiyasi o'quvchilarda mustaqil nutq yaratish qobiliyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. Masalan, o'quvchilarning "My school life" mavzusida prezentatsiya tayyorlashi yoki AI asosidagi ilovalar orqali o'z nutqini tahlil qilishi ularning monologik kompetensiyasini rivojlantiradi.² Shu asosda ushbu maqolada ingliz tili mashg'ulotlarida monologik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

MATERIALS AND METHODS

Ushbu tadqiqot ingliz tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning monologik nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning amaliy samaradorligini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot eksperimental dizayn asosida tashkil etilib, unda pedagogik kuzatish, diagnostik baholash, qiyosiy tahlil hamda sinov darslari usullaridan kompleks foydalanildi. Tajriba jarayoni Namangan viloyatidagi umumta'lim maktablarining 5-6-sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot ikki asosiy bosqichdan iborat bo'ldi: dastlabki diagnostik bosqich va yakuniy eksperimental bosqich. Dastlab o'quvchilarning monologik nutq darajasi ularning fikrni izchil bayon etishi, lug'aviy imkoniyatlardan foydalanishi hamda og'zaki nutqni tashkil etish ko'nikmalari asosida aniqlab olindi. Eksperiment davomida monologik nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qator pedagogik yondashuvlar qo'llanildi.³

¹ Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2016. – 312 b.

² G'ulomov S.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 280 b.

³ Saydaliyev S., Abdug'aniyev O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2019.

Jumladan, kommunikativ yondashuv asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Vizual materiallar (rasmlar, sxemalar va slaydlar) esa fikrni tizimli shakllantirishga yordam berdi. Shuningdek, hikoya qilish texnikasi (storytelling), loyiha asosida o'qitish, AKT vositalari hamda sun'iy intellektga asoslangan til o'rgatish ilovalari integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar turli topshiriqlarni bajardilar. Masalan, "My Daily Routine" mavzusida ular rasm asosida reja tuzib, so'ng uni izchil monolog shaklida ifodaladilar. "My School Life" loyihasida esa slayd tayyorlash va uni sinf oldida og'zaki taqdim etish orqali monologik nutq ko'nikmalarini namoyon etdilar. O'quvchilarning monologik nutq darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi: nutqning mantiqiy izchilligi, leksik resurslardan foydalanish darajasi, grammatik to'g'rilik, nutq davomiyligi hamda talaffuz ravonligi. Eksperimentgacha va eksperimentdan keyingi natijalar o'zaro taqqoslanib, qo'llanilgan metodlarning samaradorligi aniqlanildi.⁴


RESULTS

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, monologik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning og'zaki nutq faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Eksperiment boshlanishida o'quvchilar asosan qisqa, grammatik jihatdan sodda gaplardan foydalanish bilan cheklangan bo'lsa, yakuniy bosqichda ular izchil, mantiqan bog'langan va 1–2 daqiqalik monologik nutqni shakllantirish darajasiga erishgan.⁵ Eng katta o'zgarish nutqning izchilligi, lug'at boyligi va nutq davomiyligida kuzatildi. Ayniqsa, vizual tayanchlar va loyiha asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning fikrni tizimli ifodalashiga yordam berdi. Sun'iy intellekt asosidagi vositalar esa talaffuz va ravonlikni yaxshilashda muhim rol o'ynadi.

Quyidagi jadvalda tajriba oldi va tajriba keyingi natijalar qiyosiy ko'rinishda berilgan:

⁴ Karimova N.B. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv samaradorligi. 2024.

⁵ Raximov A.A. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar asosida nutqni rivojlantirish samaradorligi // Pedagogika va innovatsiyalar. – 2023. – B. 88–92.



Jadval

1. O'quvchilarning monologik nutq ko'rsatkichlari (eksperimentgacha va eksperimentdan keyin)

Ko'rsatkichlar	Boshlang'ich bosqich(%)	Yakuniy bosqich (%)	O'sish darajasi
Izchil monolog tuza olish	28%	81%	+53%
Leksik boylikdan foydalanish	34%	79%	+45%
Grammatik to'g'rilik	41%	86%	+45%
Nutq davomiyligi (1-2 daqiqa)	22%	74%	+52%
Talaffuz va ravonlik	37%	83%	+46%

Natijalardan ko'rinadiki, eng yuqori o'sish nutqning izchilligi va davomiyligida qayd etilgan. Bu esa loyiha asosida o'qitish va vizual materiallardan foydalanish monologik nutqni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, eksperiment davomida o'quvchilarning darsdagi faolligi sezilarli darajada oshgan bo'lib, ular mustaqil taqdimot qilish va fikr bildirishda yanada ishonchli bo'lib borishgan.⁶

DISCUSSION

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monologik nutqni shakllantirish jarayonida qo'llanilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar an'anaviy ta'lim yondashuvlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. An'anaviy darslarda o'quvchilar ko'proq tayyor bilimlarni qayta bayon qilish bilan cheklansa, interaktiv yondashuvlar ularni mustaqil

⁶ Norova D.T. Chet til darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llashning amaliy natijalari // Zamonaviy ta'lim muammolari. – 2024. – B. 120–124.

fikr ishlab chiqish va ogʻzaki nutqni tashkil etish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Kommunikativ yondashuv tilni nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida egallash imkonini beradi. Bunday yondashuvda oʻquvchilar turli kommunikativ vaziyatlarga jalb qilinadi va bu ularning fikrni ketma-ket va mantiqiy ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.⁷

Loyiha asosida tashkil etilgan oʻqitish jarayoni oʻquvchilarning mustaqil izlanish olib borishi, maʼlumotlarni saralashi va ularni ogʻzaki shaklda taqdim etish koʻnikmalarini rivojlantirdi. Bu usul monologik nutqning faqat til komponentlarini emas, balki kognitiv va ijodiy jihatlarini ham faollashtiradi. Vizual materiallardan foydalanish esa fikrni tartibga solish va izchil bayon qilishni yengillashtirdi. Ayniqsa, rasm va slaydlar asosida ishlash oʻquvchilarga mavzuni tasavvur qilish va uni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashda yordam berdi.⁸

Shuningdek, raqamli texnologiyalar hamda sunʼiy intellekt asosidagi vositalar individual oʻqitish jarayonini qoʻllab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon boʻldi. Ushbu texnologiyalar oʻquvchilarga talaffuzni tahlil qilish, oʻz nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni mustaqil tuzatish imkonini yaratdi. Bu esa ularning oʻz-oʻzini nazorat qilish va mustaqil oʻrganish qobiliyatini kuchaytirdi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, monologik nutqni rivojlantirishda turli innovatsion metodlarning uygʻun qoʻllanilishi eng yuqori natijani beradi. Shu sababli zamonaviy taʼlim jarayonida ushbu texnologiyalarni tizimli ravishda integratsiya qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

CONCLUSION

Tadqiqot yakunlari shuni koʻrsatadiki, ingliz tili mashgʻulotlarida monologik nutqni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash yuqori didaktik samaradorlikni taʼminlaydi. Kommunikativ yondashuv, loyiha asosida oʻqitish, vizual vositalar hamda raqamli taʼlim platformalari oʻquvchilarning fikrni mantiqan izchil, kengaytirilgan va mustaqil tarzda ifodalash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eksperimental natijalar anʼanaviy taʼlim jarayonida oʻquvchilar koʻproq qisqa va tayyor iboralarga tayanishini, innovatsion yondashuvlar esa ularni fikrni kengaytirish, mazmunni tizimlashtirish hamda ogʻzaki taqdimot qilishga yoʻnaltirishini koʻrsatdi. Bu esa monologik nutqning kognitiv va kommunikativ jihatdan barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

⁷ Ismailova Z.K. Chet til oʻqitishda kommunikativ yondashuvning didaktik asoslari // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 61–66.

⁸ Umarov B.Sh. Sunʼiy intellekt texnologiyalarining til oʻqitish jarayonidagi imkoniyatlari // Ilm-fan va taʼlim taraqqiyoti. – 2024. – B. 55–60.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quvchilarning talaffuzini tahlil qilish, nutqiy xatolarni aniqlash va mustaqil tuzatish imkonini kengaytirdi. Natijada ularning o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil o'rganish darajasi sezilarli darajada oshdi.⁹ Monologik nutqni rivojlantirish jarayonida turli innovatsion pedagogik vositalarni integratsiyalashgan holda qo'llash ta'lim sifatini oshiradi hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.¹⁰

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monologik nutq ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni nafaqat til birliklarini o'zlashtirish, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, izchil bayon qilish va mustaqil kommunikativ faoliyatini rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu bois, kommunikativ yondashuv, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli va sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashgan holda qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarda barqaror nutqiy kompetensiya shakllanishiga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2016. – 312 b.
2. G'ulomov S.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 280 b.
3. Saydaliyev S., Abdug'aniyev O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2019.
4. Karimova N.B. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv samaradorligi. 2024.
5. Raximov A.A. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar asosida nutqni rivojlantirish samaradorligi // Pedagogika va innovatsiyalar. – 2023. – B. 88–92.
6. Norova D.T. Chet til darslarida kommunikativ yondashuvni qo'llashning amaliy natijalari // Zamonaviy ta'lim muammolari. – 2024. – B. 120–124.

⁹ Karimov A.A. Raqamli texnologiyalar asosida chet tilini o'qitish metodikasi // Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – 2024. – B. 44–49.

¹⁰ Qodirova M.M. Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari // Pedagogik mahorat jurnali. – 2023. – B. 73–78.

7. Ismailova Z.K. Chet til o'qitishda kommunikativ yondashuvning didaktik asoslari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 61–66.
8. Umarov B.Sh. Sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'qitish jarayonidagi imkoniyatlari // Ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti. – 2024. – B. 55–60.
9. Karimov A.A. Raqamli texnologiyalar asosida chet tilini o'qitish metodikasi // Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – 2024. – B. 44–49.
10. Qodirova M.M. Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari // Pedagogik mahorat jurnali. – 2023. – B. 73–78.